

**IV  
2023**

# ELECTRONIC EDUCATION

---

## SCIENTIFIC JOURNAL

## TAHRIRIYAT

### Bosh muharrir

**Ro‘ziyev Raup Axmadowich**  
fizika-matematika fanlari nomzodi,  
dotsent

### Bosh muharrir o‘rinbosari

**Mirsanov Uralboy Muxammadiyevich**  
pedagogika fanlari doktori DSc, dotsent

### Editor-in-Chief

**Ruziyev Raup Akhmadovich**  
Candidate of Physical and Mathematical Sciences,  
Associate Professor

### Deputy Editor-in-Chief

**Mirsanov Uralboy Mukhammadiyevich**  
doctor of Pedagogical Sciences DSc, Associate  
Professor

## TAHRIRIYAT A’ZOLARI

**Sobirov Baxodir Boypulatovich** – NavDPI rektori,  
texnika fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Laqayev Saidaxmad Norjigitovich** – akademik  
(O‘zbekiston)

**Djurayev Risbay Xaydarovich** – akademik  
(O‘zbekiston)

**Shokin Yuriy Ivanovich** – akademik (Rossiya)

**Negmatov Sayibjon Sodiqovich** – akademik  
(O‘zbekiston)

**Aripov Mersaid Mirsiddikovich** – fizika-matematika  
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Turabdjanov Sadritdin Maxamatdinovich** – texnika  
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Raximov Isomiddin Sattarovich** – fizika-matematika  
fanlari doktori, professor (Malayziya)

**Shariy Sergey Petrovich** – fizika-matematika fanlari  
doktori, professor (Rossiya).

**Qurbanov Shavkat Ergashovich** – pedagogika  
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston).

**Ajimuxammedov Iskandar Maratovich** – texnika  
fanlari doktori, professor (Rossiya).

**Ibraimov Xolboy** – pedagogika fanlari doktori,  
professor (O‘zbekiston)

**Yunusova Dilfuza Isroilovna** – pedagogika fanlari  
doktori, professor (O‘zbekiston)

**Aloyev Raxmatillo Djurayevich** – fizika-matematika  
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Abdullayeva Shaxzoda Abdullayevna** – pedagogika  
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Mo‘minov Bahodir Boltayevich** – texnika fanlari  
doktori, professor (O‘zbekiston)

**Maxmudova Dilfuza Mileyevna** – pedagogika  
fanlari doktori, professor (O‘zbekiston)

**Xudjayev Muxiddin Kushshayevich** – texnika  
fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

**Xolmurodov Abdulhamid Erkinovich** – fizika-  
matematika fanlari doktori, dotsent (O‘zbekiston).

**Lutfillayev Maxmud Xasanovich** – pedagogika fanlari  
doktori, dotsent (O‘zbekiston).

**Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna** – pedagogika  
fanlari doktori (DSc), dotsent (O‘zbekiston).

**Norov Abdusait Muradovich** – texnika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston).

**Yuldashev Ismoil Abriyevich** – pedagogika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori, dotsent (O‘zbekiston).

**Karaxonova Oysara Yuldashevna** – pedagogika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori, (O‘zbekiston).

**Kurbaniyazova Zamira Kalbaevna** – pedagogika  
fanlari doktori, (O‘zbekiston).

**Nasirova Shaira Narmuradovna** – texnika fanlari  
doktori, professor (O‘zbekiston).

**Nasridinov Ilxam Burxanidinovich** – texnika fanlari  
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

**Xujjiyev Sodiq Oltiyevich** – biologiya fanlari nomzodi,  
dotsent (O‘zbekiston).

**Suvonov Olim Omonovich** – texnika fanlari nomzodi,  
dotsent (O‘zbekiston).

**O‘tapov Toyir Usmonovich** – pedagogika fanlari  
nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

**Ibragimov Alimjon Artikbayevich** – fizika-matematika  
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

**Yodgorov G‘ayrat Ro‘ziyevich** – fizika-matematika  
fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston).

**Xudoyorov Shuxrat Jumaqulovich** – fizika-  
matematika fanlari nomzodi, dotsent (O‘zbekiston)

**Baxodirova Umida Baxodirovna** – pedagogika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

**Shodiyev Ibrohim Majidovich** – filologiya fanlari  
bo‘yicha PhD, dotsent (O‘zbekiston)

**Toxirov Feruz Jamoliddinovich** – pedagogika fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

**Xamroyeva Dilafro‘z Namozovna** – fizika-matematika  
fanlari bo‘yicha falsafa doktori (O‘zbekiston).

**Jo‘rakulov Tolib Toxirovich** – texnik muharrir

## MUNDARIJA

**Ergasheva G. S., Toshmanov N. J.**

BIOLOGIYA MASHG'ULOTLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA DASTURLARIDAN  
FOYDALANISH METODIKASI

5

**Ro'ziyev R. A.**

BO'LAJAK O'QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENSIYASINI  
RIVOJLANTIRISHDA VIRTUAL ELEKTRON AXBOROT-TA'LIM MUHITINING O'RNI

16

**Sharifjanova G., Xasanov Sh. R.**

RAQAMLI IQTISODIYOTDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI O'QITISHNING  
XUSUSIYATLARI

26

**Horo'e A. M., Saфаров L. C., Mуродов Ш. А.**

O СПОСОБАХ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ВОЗМОЖНОСТЕЙ CHATGPT В ОБУЧЕНИИ  
ПРОГРАММИРОВАНИЮ

37

**Xamroyeva D. N.**

TARQATMA MATERIALLAR SHAKLIDAGI ELEKTRON O'QUV KONTENTLARINI  
TARSIA DASTURIDAN FOYDALANIB YARATISH TEKNOLOGIYASI

48

**Qayumova D. N.**

INKLYUZIV TA'LIM MUHITIDA BO'LAJAK TARBIYACHILARNI KASBIY FAOLIYATGA  
TAYYORLASHNING STRATEGIK YO'NALISHLARI

63

**Ruziyeva D. R.**

DASTURLASH TILLARINI O'QITISHNING INNOVATSION SHAKLLARI VA USULLARINI  
JORIY ETISH IMKONIYATLARI

76

**Yuldashev I. A., Mirzayev S. S.**

TARMOQ TEKNOLOGIYALARIDA BILAN AXBOROT ALMASHINUVNI TASHKIL ETISH  
MASALALARI

84

**Juraboyev A. J.**

KOMPYUTER QURILMALARINI O'RGATISHGA MO'LJALLANGAN VIZUAL  
KO'RGAZMALI QUROLLAR YARATISH USULLARI

94

**Ro'ziyev R. A., Yandashova N. Y.**

VIRTUAL TA'LIM TEKNOLOGIYALARINI YARATISHGA MO'LJALLANGAN TA'LIM  
PLATFORMALARNING IMKONIYATLARI

101

**Jumayeva D. N.**

XORIJIY DAVLATLARNING KASB - HUNAR MAKTABLARIDA MUSTAQIL TA'LIMNING  
HOLATI

109

**Mirsanov J. M.**

*UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTAB O’QUVCHILARINING DASTURLASHGA OID ALGORITMIK FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA SEMANTIK YONDASHUVDAN FOYDALANISH*

118

**Husanova S. H.**

*OLIY TA’LIM MUASSASALARI TALABALARIGA DASTURLASH TILLARINI O’RGATISHDA HISOBBLASH TAFAKKURI (COMPUTATIONAL THINKING) DAN FOYDALANISH KO’NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH*

127

**Xodjabayev F. D.**

*DASTURLASH TILLARI FANIDAN ONLAYN VIKTORINALAR O’TKAZISH USULLARI*

137

**Shodiyeva G. R.**

*TALABALARNING TABIIY GEOGRAFIYAGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHDA VEB-KVEST TEXNOLOGIYASINING AMALIY SAMARADORLIGI*

145

**Ergasheva F. T.**

*BO’LAJAK BOSHLANG ‘ICH SINF O’QITUVCHILARINING RAQAMLI KOMPETENTLIGINI SHAKLLANTIRISHDA “DISKUSSIYA” INTERFAOL METODINI QO’LLASH*

155

© Mazkur jurnal O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy Attestatsiya komissiyasi rayosatining 2022-yil 28-fevraldagи 312/6 qaroriga asosan Pedagogika fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilgan

## BIOLOGIYA MASHG‘ULOTLARIDA VIRTUAL LABORATORIYA DASTURLARIDAN FOYDALANISH METODIKASI

*Ergasheva Gulruxsor Surxonidinovna*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti professori, O’zbekiston*

*Toshmanov Nizom Jumanovich*

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti dotsenti, O’zbekiston*

**Annotatsiya:** Zamonaviy ta’lim tizimida virtual laboratoriyalardan foydalanish o’zlashtirishda yuqori samara beradi. Virtual laboratoriya ishlari maxsus kompyuter dasturlari bo’lib, biror bir jarayon yoki obyektni modellarini monitorda yoki noutbukda ko’rish imkoniyatini beradi. Umumta’lim maktablari uchun biologiya fanidan bitta mavzu bo’yicha virtual laboratoriya dasturi ishlab chiqildi, tajribadan o’tkazildi va o’quvchilar o’zlashtirish samaradorligi oshishiga olib keldi.

**Tayanch so’zlar:** AKT, virtual laboratoriya, dastur, elektron mundarija, mikroskop, lupa, mikropreparatlar, reaktivlar.

**Аннотация:** Использование виртуальных лабораторий в современной системе образования высокоэффективно в обучении. Виртуальные лаборатории — это специальные компьютерные программы, позволяющие просматривать модели процесса или объекта на мониторе или ноутбуке. Была разработана и апробирована одно виртуальная лабораторная программа по биологии для общеобразовательных школ, которая привела к повышению успеваемости учащихся.

**Ключевые слова:** ИКТ, виртуальная лаборатория, программа, электронный контент, микроскоп, микроскоп, микропрепараты, реагенты.

**Abstract:** The use of virtual laboratories in the modern education system is highly effective in teaching. Virtual laboratories are special computer programs that allow you to view models of a process or object on a monitor or laptop. A one-subject virtual laboratory program in biology for secondary schools was developed and tested, which led to increased student achievement.

---

**Key words:** *ICT, virtual laboratory, program, electronic content, microscope, microscope, microslides, reagents.*

**Kirish.** Respublikamizda zamonaviy axborot-texnologiyalari va kommunikatsiyalarini yaratish, elektron davlat xizmatlarini ko‘rsatishning yaxlit tizimini ishlab chiqish, davlat organlarining aholi bilan muloqot qilishining yangi mexanizmiga o‘tish, maktab, o‘rta maxsus va oliv ta’limni elektron o‘quv vositalar bilan ta’minalash uchun mukammal dasturiy ta’minotga bo‘lgan extiyoj oshib bormoqda. Raqamli texnologiyalar hayotimizning barcha jahbalariga izchil kirib borayotgan bir paytda birgina ta’lim sohasini kompyuterlashtirish va avtomatlashtirish, boshqaruvda axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, ta’lim muassasalarining o‘quv laboratoriya va texnik jihozlar, kompyuterlar, multimediali elektron resurslar, elektron darsliklar va o‘quv qo’llanmalari bilan ta’minalanganligi, shu bilan birga, ta’lim tizimida immersiv texnologiyalar, zamonaviy interfaol ta’lim muhitini joriy etilganligi bunga yaqqol misol bo‘la oladi [1, 43-b.].

Zamonaviy ta’lim tizimida virtual laboratoriyalardan foydalanish oquv fanlarini o‘zlashtirishda yuqori samara beradi. Virtual laboratoriya ishlari maxsus kompyuter dasturlari bo‘lib, biror bir jarayon yoki obyektni modellarini monitorda yoki noutbukda ko‘rish imkoniyatini beradi. Virtual laboratoriyalardan foydalanish quyidagi holatlarda zarur bo‘ladi: laboratoriya mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun kerak bo‘ladigan sharoit; materiallar, reaktivlar va jihozlar etarli bo‘lmagan shroitda; masofaviy ta’limni amalga oshirishda, shuningdek, ilmiy faoliyat yurtishda.

Tabiiy fanlardan virtual tajribalar, virtual laboratoriya ishlari ta’limning istiqbolli yo‘nalishi bo‘lib, talabalar va o‘qituvchilar e’tiborini tabiiy ravishda o‘ziga tortadi. Virtual laboratoriyalarni o‘quv amaliyotiga joriy etishning zaruriyati, ta’limni raqamlashtirish sharoitida bugungi davr talabi hisoblanadi. O‘quv jarayonlarida kompetentlilikka asoslangan yondashuvni amalga oshirish ta’limning amaldagi standartlari o‘quv jarayonida mashg‘ulotlarni o‘tkazishning faol va interaktiv shakllarini, shu jumladan kompyuter simulyatsiyalarini, auditoriyadan tashqari ishlar

---

bilan birgalikda keng qo'llashni nazarda tutadi va talabalarning kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Virtual laboratoriylar tabiiy fanlarni o'qitish amaliyotida ishonchli o'rin egallaydi, shu bilan birga ulardan foydalanishning nazariy va uslubiy asoslari va ular asosida virtual laboratoriya ishlarini yaratish endigina shakllana boshladi. Hatto "virtual laboratoriya ishi" atamasi hali boshqa tushunchalar, jumladan, tabiiy fanlarni o'qitishda virtual laboratoriya tushunchasi va virtual tajriba bilan bog'liqligini aniq ifodalovchi asoslangan ta'rifni olmagan [2].

Tabiiy fanlardan tajriba jarayonida o'quvchilar kuzatish, tahlil qilish, xulosa chiqarish, asbob-uskunalar va reagentlar bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi. Bular: o'quv eksperimenti; tajribalar (fan obyektning alohida tomonlarini o'rganishga yordam beradi), laboratoriya ishi (laboratoriya tajribalari majmuasi obyektlar va jarayonlarning ko'p tomonlarini o'rganish imkonini beradi), amaliy mashg'ulotlar, laboratoriya ustaxonasi; uy tajribasi, tadqiqot tajribasi va boshqalar. Kimyoviy tajriba tabiiy, aqliy yoki virtual bo'lishi mumkin. "Virtual" - "jismoniy timsolsiz mumkin" degan ma'noni anglatadi; virtual haqiqat - kompyuter qurilmalari yordamida real muhitga taqlid qilish; asosan ta'lim maqsadlarida foydalaniladi; shu munosabat bilan virtual tajriba ba'zan simulyatsiya yoki kompyuter tajribasi deb ataladi.

Dubovikova Z.N. virtual laboratoriyalarni qo'llash bo'yicha quyidagicha klassifikatsiyani taklif qiladi:

- demonstratsion qo'llash (real ishdan oldin) – real bajarilishi kerak bo'ladigan ishni katta ekranda proyektor yordamida namoyish qilish;
- umumlashtirish uchun qo'llash (real ishdan so'ng) frontal (demostratsiya orqali natijalarni aniqlashtirish, xulosalarni shakllantirish va mustahkamlash), yoki individual (eksperimentning matematik tomoni, grafiklarni analiz qilish, sonlar ahamiyati, olingan natijalarni real hayotga solishtirish) rejimlarda;
- eksperimental qo'llash (real ish o'rnida) - individual (kichik guruhlarda) topshiriqlarni real bajarmasdan virtual bajaradi va kompyuterda eksperiment o'tkazadi [3].


Virtual laboratoriyanidan foydalanish amaliy ko‘nikmalarni shakllanishi, yangi laboratoriya jihozlarini qo‘llay olish, amaliy ishlarni bajarishda mustaqil kuzatishlar olib borish, eksperimental masalalarni yechish va shu bilan birga tabiiy bilimlarni shakllantirish kometensiylarini hosil qilish, sog‘liqni saqlash imkoniyatlarini orttirishda katta ahamiyatga ega [4, 97-b.].

Laboratoriya ishlarini virtual bajarish bilimni mustahkamlashga, malakani hosil bo‘lishiga, laboratoriya ishini qisqa muddat ichida bajarishga va muammoni materiallar bazasi kam bo‘lsada xal qilishga erishiladi [5].

**Tadqiqot metodologiyasi.** Respublikamizda mакtab ta’lim uchun biologiya fanidan virtual laboratoriya dasturlash bugungi kunning asosiy talablaridan biri hisoblanadi. O‘quvchining virtual olamda laboratoriyalarni o‘tkazish, undagi topshiriqlarni kompyuterda yoki qo‘l telefoni (smartfon) orqali bajarish fanga nisbatan qiziqishni oshirishga va o‘zlashtirishning samadorligini yuqori bo‘lishiga olib keladi [6, 38-b.]. Mazkur faoliyatga talabalarni tayyorlash bevosita, pedagogic amaliyot jarayonida amalga oshiriladi.

Maktab 7- sinf biologiya darsligida keltirilgan laboratoriyalarning quyidagi virtual shaklini tavsiya etamiz.

Virtual laboratoriyaning birinchi sahifa oynasi:



Nazariy qismda mavzu, maqsadi, ish tartibining ketma ketligi mazmuniga oid materiallar taqdim etiladi.

Masalan:

**Mavzu: Kattalashtirib ko‘rsatuvchi asboblar va o‘simlik to‘qimasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash.**

**Maqsad.** Lupa va mikroskop tuzilishi bilan tanishish, ishlashni o‘rganish, o‘simlik organlaridan vaqtincha preparat tayyorlash ko‘nikmasini shakllantirish.

## **1. Kattalashtirib ko‘rsatuvchi asboblar**

**Ishning borishi:**

1. Kattalashtiruvchi asboblarni ko‘rib chiqish.
2. Lupani tuzilishini o‘rganish.
3. Mikroskop bilan ishlash qoidalari bilan tanishib chiqish.
4. Mikroskopni yaxshilab o‘rganib chiqish va uning optik va mexanik qismlarini topish.


## **2. O‘simlik to‘qimasidan vaqtinchalik preparat tayyorlash.**

**Ishning borishi:** O‘simlik to‘qimalarini, ularning hujayraviy tuzilishini o‘rganish uchun har xil preparatlar tayyorlanadi. Qoplovchi to‘qimani o‘rganishda tradiskansiya bargidan foydalaniladi.

Buning uchun barg yuviladi, buyum oynachasini tozalab ustiga bir tomchi suv tomiziladi. Barg ostidan skalpel yordamida yupqa qilib kesma olinadi va priproval igna yordamida buyum oynachasining suv tomizilgan joyiga qo‘yilib qoplagich oyna yopib mikroskopda ko‘riladi. Xuddi shunday preparat tayyorlab kartoshka tuganagi yoki ivitilgan bug‘doy donidan g‘amlovchi to‘qimani, nok yoki behi mevasining eti (mezokarp)dan olib hujayralarini ko‘rish mumkin.


Bu qism to‘liq o‘qib chiqilgandan so‘ng ikkinchi ya’ni “1-topshiriq” oynasini ochish mumkin. Xuddi shunday boshqa topshiriqlar ham daslabkisini bajargandan so‘ng keyingisi ochiladi.

1- topshiriq: Kattalashtirib ko'rsatuvchi asboblarni sxemaga joylashtiring?



2- topshiriq: Optik mikroskop qanday qismlardan iborat?

Okulvar	Taglik	Tubus	Diskli diafragma
Buyum stolchasi	Ovnacha	Makroyint	Mikrovint
Shtativ	Obektiv	Revolver	Preparat tutqichi



**3- topshiriq: Mikroskop qismlari vazifalarini aniqlang.**

Kattalashtirish	Mikroskopni tutib turish
Okulyami tutib turish	Mikroskopni ko'rishga moslash
Yorug'likni yo'naltirish	Obektivlarni o'mini almashtirish
Buyum stolchasi bilan tubus oraliq masofasini o'zgartirish	Preperat oynachasini joylashtitish

**4- topshiriq: O'simlik to'qimasidan yaqtinchalik preparat tayyorlang.**


Pinset yordamida piyozning yupqapo'stidan bo'lakcha olinadi
Priproval igna yordamida kesma eritma ustida tekislanadi
Ooplama ovnani yopib mikroskopda ko'riladi
Piyoz po'sti bo'lakchasi buyum ovnachasiga qo'yiladi
Buyum ovnachasidagi suvgaga bir tomchi yod eritmasi
Buyum ovnachasi ustiga pepitka yordamida suv tomiziladi

Jarayonlar ketma-ketligini aniqlang:



**Kerakli material va jixozlar:**

Son bilan keltirilgan topshiriqlarda ekranda maxsus katakchali maydonlarga topshiriqlar va xuddi shunday katakchalarda topshiriqlar javobi keltirilgan. O‘quvchi topshiriqni bajarish uchun topshiriqdagi katakchalar ustiga sichqoncha yordamida to‘g‘ri javob keltirilgan katakchani qo‘yadi. Agar o‘quvchi to‘g‘ri topgan bo‘lsa topshiriqdagi katakcha yashil yonadi, agar noto‘g‘ri topsa qizil yonadi.



Topshiriqlar to‘liq bajarilib bo‘lgandan so‘ng oxirgi oyna “Laboratoriyanı amalga oshirish” oynasi ochilib, kerakli materiallar va jihozlardan foydalanib sichqoncha yordamida laboratoriya ishi bajariladi. Mikroskopda quyidagi manzara hosil bo‘ladi.

O‘quvchining laboratoriya ishini bajarish jarayoni video farmatda yozib olishi mumkin bo‘ladi.

**Tahlil va natijalar.** Talabalar bilan pedagogik amaliyot jarayonida virtual laboratoriyaning sinov varianti sifatida bitta laboratoriya dasturlanib, maktabda sinovdan o‘tkazildi. Bunda Toshkent shahar 101- o‘rta umumta’lim maktabi 7- sinf o‘quvchilaridan 97 nafari ishtirok etdi. Shundan 63 nafari (2 ta sinf) eksperiment va nazorat guruhi 34 nafar (1 ta sinf) etib tanlab olindi. Mavzu bo‘yicha o‘quvchilar bilimi tekshirilganda (og‘zaki va test) o‘zlashtirish, laboratoriyaning ishining ketma-ketligi, asbob uskunalarining tanishi va natijalarni izohlay olishi eksperiment guruhlarda yuqori ekanli aniqlandi. Quyida test natijalarini keltiramiz.

Ball guruh	86-100	71-85	55-70	55 dan past	O‘quvchilar soni
Eksperiment guruh	28% (16)	56% (37)	12% (8)	3% (2)	63
Nazorat guruhi	7% (2)	33% (11)	48% (16)	12% (3)	34

**Xulosa sifatida shuni ta’kidlash mumkinki**, oliv ta’lim tizimida talabalar metodik tayyorgarligini orttirishda virtual ta’lim texnologiyasidan foydalanish metodikasini takomillashtirishga qaratilgan elektron o‘quv-metodik ta’minoti o‘quv axborotlari manbalari, o‘quv kommunikatsiya, ta’lim natijalarini nazorat qilish, o‘rganiladigan jarayon va obyektlarni modellashtirish vositasi hisoblanib, unda taklif etilgan metod va texnologiyalardan foydalangan holda auditoriya va auditoriyadan tashqari mashg‘ulotlarni tashkil etish shakllarining uzviyligi va samaradorligi ta’minlaydi, pedagogic amaliyot jarayonida virtual laboratoriyalardan maqsadli foydalanish kompetenligini orttiradi hamda talabalarning metodik faoliyatini faollashtirish, biologiya ta’lim jarayonining didaktik ta’minotini mustahkamlash imkonini beradi.

### **Adabiyotlar**

1. Ergasheva G.S., Umarova M.N. The use of digital educational technologies in biology lessons // The modern vector of the development of science Proceedings of the IV International Scientific and Practical Conference 13-14 April 2023. - Philadelphia, USA. 110 p. – pp. 43-45.

2. Гавронская Й.Й., Оксенчук В.В. методика создания виртуальных лабораторных работ по химии // Современные проблемы науки и образования. – 2015. – № 2-2.;URL: <https://science-education.ru/ru/article/view?id=22290>

3. Дубовикова З.И., Использование виртуальных лабораторных работ по биологии в условиях реализации ФГОС ООО, февраль 2020 год //

<https://infourok.ru/ispolzovanie-virtualnyh-laboratornyh-rabot-po-biologii-v-usloviyah-realizacii-fgos-ooo-5565323.html>.

4. Ergasheva G.S. Biologiya darslarida 3D texnologiya elementlari yordamida sog‘liqni saqlash imkoniyatini orttirish // Uzluksiz ta’lim, №3 Toshkent-2020. –59-62 b.
5. Ergasheva G.S Elektron ta’lim muhitida 3D texnologiyalar va modellashtirish dasturlaridan foydalanish // Mug‘allim hem uzliksiz bilimlendirio‘. - № 5. 2020. – 97-100 B.
6. Xayrullayeva N.D. Biologiya ta’limi jarayonida virtual texnologiyalar asosida talabalarning metodik tayyorgarligini takomillashtirish (Odam anatomiysi va fiziologiyasi fani misolida). // Diss. (PhD). Chirchiq - 2023. – 159 b.
7. Ergasheva G.S., Umarova M.N. Biologiya darslarida raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish // Muallim hem uzliksiz bilimlendirio‘. № 2/3-san. 2023. –212-219 b.